



ABDULLA AVLONIY IJODIDA ONA VATAN VA ONA TILIGA
HURMAT MASALASINING BADIY IFODASI

Abdumutalova Shirin Axmad qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va
adabiyoti fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14033136>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yetuk olim va pedagog Abdulla Avloniyning yangi jadid harakatlari, pedagogik qarashlari orqali ona Vatani, ona tiliga hurmat masalasi, ta'lim va fan sohasi hamda dars jarayoniga bir qancha o'zgarish va yangilanishlar olib kirgani, uning pedagogik qarashlari asosida maktab va oliy ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida interaktivlik, faollik, o'zaro hurmat va tarbiya masalalariga o'z yechimini topishi, uning pedagogik asarlarida ham tarbiya va odob-axloq tamoyillari va ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor berilgani, uning pedagogik qarashlari hamda asarlaridagi tarbiya masalasi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Vatan, ona tili, pedagogika, odob, tarbiya, ta'lim, ko'nikma, tadqiqot, metodika, metod, innovatsiya.

Аннотация. В этой статье выдающийся ученый и педагог Абдулла Авлони внес ряд изменений и обновлений в Родину, в вопрос уважения к родному языку, в сферу образования и науки, в процесс обучения через новые современные действия и педагогические взгляды, основанные на его педагогические взгляды, школьное и высшее образование. Он нашел свое решение вопросам взаимодействия, активности, взаимного уважения и воспитания среди учащихся учебных заведений, принципам воспитания и этики и области образования уделялось серьезное внимание в его педагогических трудах, обсуждаются его педагогические взгляды и вопросы воспитания в его произведениях.

Ключевые слова: Родина, родной язык, педагогика, манеры, воспитание, образование, навыки, исследования, методология, метод, новаторство.

Annotation. In this article, the outstanding scientist and teacher Abdulla Avloni made a number of changes and updates to the Motherland, to the issue of respect for the native language, to the field of education and science, to the learning process through new modern actions and pedagogical views based on his pedagogical views, school and higher education. education. He found his solution to the issues of interaction, activity, mutual respect and education among students of educational institutions, the principles of education and ethics and the field of





education were given serious attention in his pedagogical works, his pedagogical views and issues of education are discussed in his works.

Key words: Homeland, native language, pedagogy, manners, upbringing, education, skills, research, methodology, method, innovation.

Har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimiz ma'naviyatini yanada rivojlantirishda millatimiz tarixini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarning alohida o'rni bor. O'zbek adabiyoti bunday asarlarga boydir. Ular yosh avlodni barkamol qilib voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darslik va o'qish kitoblari ham xarakterli bo'lib, yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo'la oladi. Ayniqsa, uning ilk savod chiqarishda bilim va tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishi alohida e'tiborni tortadi. Shuni inobatga olib, bu asarlarni jiddiy o'qib chiqish va unda ilk darslikka xos tuzilmani, g'oyaviy to'liqlikni, kitoblardagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganib chiqish zarur.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fanidir, deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi: 1. "Tarbiyaning zamoni". 2. "Badan tarbiyasi". 3. "Fikr tarbiyasi". 4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi. "Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota - ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. "Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" deb uqtiradi, Avloniy. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida ona Vatan tuyg'usi, ona tili, aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi bevosita insonni ulug'lash bilan uzviy bog'lanadi.





Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir". Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi. "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston...» asarida «Vatanni suymak» degan bob bor. Unda yosh qalblarda o'z Vatani Turkistonga nisbatan muhabbat tuyg'ularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bor: Vatan, Vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon, Banga na qam, qolur avlodima o'z Vatanim. G'ubora do'nsa qamim yo'q vujud zeri vahm, Choraki, o'z Vatanim xokidur go'ru kafanim. Tuqib o'san yerim ushbu Vatan vujudim xok, O'lursa aslina roje' bo'lurmi man g'amnok.

Ushbu asar yozilgan davrni - Vatanimiz mustamlaka iskanjasida fojei ahvolga tushgan, kelgindilar oyoqi ostida toptalgan davrini to'la his qilib, «Vatanni suymak» bobi o'qilsa, Vatan istiqloli, ozodligi uchun inson hatto jonini ham fido qilishi kerak, degan qoya asar qatlariga singdirib yuborganligini sezish qiyin emas. Vatan tuproqi muqaddas: unda ajdodlarimizning xokilari bor unda kelajak nasllarimizning haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevish mumkin emas, uning istiqboli uchun kuyunish, kurashish, kelguvchi avlodlarga to'lato'kis, ozod farovon holda topshirish hissi ham mavjud.

Abdulla Avloniy ona-Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda bo'ladi. «Turkiy guliston yohud axloq» asaridan bir kichik bob «hifzi lison» («Tilni muhofaza qilish») deb ataladi. hamma vaqt, hamma jamiyatda millatning mavjudligini, e'tiborini belgilovchi ko'zgusi uning tili va adabiyotidir. Ulug' san'atkor shoir Abdulhamid Cho'lpon «Adabiyot o'lsa, millat o'lur» deb yozdi. «Adabiyot nadur?» maqolasida. har bir inson, birinchi navbatda, o'z ona tilini mukammal bilishi, tilining ravnaqi, sofligi uchun kurashishi kerak. Asar muallifi o'rinsiz o'zga til so'zlarini qo'shib, «moshkichiri» kabi aralash-quralash ishlatishga keskin qarshi chiqadi.

Avloniynig ona tiliga bunday qarashlari hozirgi kunimizda ham har gapiga, albatta, 2-3 o'rischa so'zni qo'shib gapiruvchi yoki o'ris tilini durustroq bilmasa-da, o'rischa gapirishni madaniyat belgisi deb, biluvchi ba'zi bir yoshlarimizga nafaqat yoshlarimizga taalluqlidir: «har bir millatning dunyoda





borlig'in ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmay millatning ruhini yo'qotmaktur. hayhot!

Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafdagi tursin kundan-kun unutmak va yo'qotmaktadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulagani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmaktadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi kerakli narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Ziqir yoqi solub, moshkichiri kabi qilub aralash-quralash qilmak tilnig ruhini buzadur». Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning ona tiliga nisbatan buyuk muhabbat bilan aytgan so'zlari to'g'ridan to'g'ri o'sib kelayotgan yosh (hatto hozirgi) avlodlarga qaratilgan edi:

Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, rahmonim.
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
O'lgunimcha ayilma, ey jonim.
Menga ilmu adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim ilonim.
Millatning ruhini ko'targuchisan,
Ey muqaddas karamli sultonim.

Abdulla Avloniy atoqli metodist olim sifatida «Turkiy guliston...» asarida o'quvchilarning oqzaki nutqini o'stirish masalasiga, voizlik (notiqlik) san'atini egallashga alohida e'tibor qaratadi. Muallif fikricha, har bir o'quvchi ona tilida o'z fikrini aniq, ta'sirchan, shu bilan birga, chiroyli bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa o'quvchi olna tilining nozik, go'zal jihatlarini puxta egallagan bo'lishi kerak: «Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy oqiz orasidagi tilni (og'zaki nutqni U. D.) ham saqlamak lozimdur.

Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgon tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar. «Quruq so'z quloqqa yoqmas», - demishlar».

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy ijodida Vatan tuyg'usi, ona tiliga hurmat, ta'lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Uning asarlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanki, shu jihatdan uning boy adabiy pedagogik merosi milliy pedagogika taraqqiyotida qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.-160-b;
2. Abdulhatov N., Abubakirova O. “Allomalar to‘g‘risidagi asotirlar” F.: 2012;
3. Barakayev R. “Abdulla Avloniy va bolalar adabiyoti”. T.:Fan, 2004;
4. Xo‘jayeva D. Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya xususidagi qarashlari//Til va adabiyot ta‘limi, 2003, 3-son.-B.71.
5. Kadirova M., The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning. current research journal of philological sciences, 2022, 3(03), 1–THE NEED FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN DISTANCE LEARNING | CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (inlibrary.uz)
6. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
7. Kadirova M.N.. The need for improving the methodology of teaching folklore. International scientific-online conference: Intellectual education Netherlands. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmlvB9cP2PPxaq.pdf>

